

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2021 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rincbosarlar: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiysiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief:	Zaynabiddin Abdirashidov Kasimbay Mamurov
Executive secretary:	Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybullha Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Muhittin Gümüş

Altın Köprü Türkçe Öğretimi (B2 Ve C1) Ders Kitaplarının Avrupa
Dilleri Ortak Çerçeve Programının Dil Düzeyi Göstergelerine
Uygunluğu Açısından Değerlendirilmesi.....6

Zamira Hamidova

Usmonli Imperiyasi davrida tilni rejalashtirish va milliy o'zlikning
barpo etilishi.....38

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Aidaxon Bumatova

Kichik lirik janrlar tarjimasidagi ba'zi muammolar.....51

Din. Falsafa. Ilohiyot

Komiljon Rahimov

Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati va
qarashlari: G'ijduvoniya qaytish va Xojagon-naqshbandiya
ta'limotining takomillashtirilishi.....65

Fan. Ta'lim. Metodika

Gulchehra Izbullayeva

Didaktik asarlarda madaniyat, maktab va pedagogik meros.....85

Fazilat Sattorova

Lingvistik kompetensianing ingliz tilini xorijiy til sifatida
o'qitishdagi ahamiyati.....105

CONTENT

Linguistics

Muhittin Gumush

Evaluation of Altın Bridge Turkish Teaching (B2 and C1) Textbooks
in Terms of Compliance with the Language Level Indicators of the
Common European Framework of Reference for Languages.....6

Zamira Hamidova

Language planning and national identity during the
Ottoman Empire.....38

Literature. Translation studies

Aidakhon Bumatova

Problems in the Translation of Smaller Lyric Genres.....51

Religion. Philosophy. Theology

Komiljon Rahimov

Hoja Bahouddin Nakshbandi, his Life, Activities and Views:
Return to Gijduvani and Improvemen of Khojagon-
Nakshbandiya's Doctrine.....65

Science. Education. Methodology

Gulchehra Izbullaeva

Culture, school and pedagogical heritage in didactic works.....85

Fazilat Sattorova

The Importance of Linguistic Competence
in Teaching English as a Foreign Language.....105

Lingvistik kompetensianing ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishdagi ahamiyati

Fazilat Sattorova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada hozirgi kunda ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda til nazariyasida "kommunikativ yondashuv" qonun-qoidalarini qabul qilgan holda tadqiq qilish haqida so'z boradi. Nazariy asoslarini o'rganish bizni hozirgi kunga qadar mavjud bo'lgan til kompetensiyasining tadqiqi to'g'risidagi ma'lumotlar to'g'risida biroz o'ylab ko'rishga undaydi. Lingvistik kompetensiya masalalari bilan juda ko'p olimlar shug'ullanishgan. "Lingvistik kompetensiya" atamasi bir necha yillar davomida rivojlangan va tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida qaraladigan bir nechta olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy fikrlar haqida so'z boradi. Lingvistik kompetensiya o'zlashtirilgan lingvistik bilimlar tizimi va lingvistik bilimlar bilan bog'liqdir. U muloqot, kommunikatsiyada foydalilaniladigan til tizimining usulidir. Noam Xomskiy umumiyligi grammatika konsepsiyasini ishlab chiqdi va unda lingvistik kompetensiya til tizimining bir darajasi bo'lib hisoblanadi. Xomskiyning fikriga muvofiq, kompetensiya til tizimining ideal sistemasi va so'zlovchilarining o'z tillarida aniq gaplarni ifoda etishi uchun grammatik bilimga ega bo'lishi talab etiladi. 1970-yillarda ingliz tilini o'qitish chet tillarni o'qitishda dolzarb masalalardan biriga aylandi. Lingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensianing tarkibiy qismidan biridir va quyidagi olimlar tomonidan o'z ilmiy izlanishlarida Haims (1972), Kanal va Swan (1980) va Alkon (2000) bu haqida tadqiqot olib borilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, aloqa, kommunikativ yondashuv, o'qish, tinglash, yozish, gapirish, rolli o'yinlar, interfaol mashqlar.

¹ Sattorova Fazilat Ermamatovna – tayanch doktorant, Samarqand davlat universiteti.

E-pochta: fazilat_sattorova@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-9710-1611

Iqtibos uchun: Sattorova, F. E. 2021. "Lingvistik kompetensianing ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishdagi ahamiyati". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 105-123.

Kirish

Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yemoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish" vazifasi belgilandi [Harakatlar Strategiyasi 2017].

Globalizatsiyaning rivojlanish davrida iqtisodiy, sotsial jihatdan mamlakatlarning, xalqlarning, tillarning va madaniyatning yaqinlashuvi kuzatilyapti. Jahan hamjamiyatida chet tillarni o'rganishda asosiy maqsad xalqlar o'rtasida muloqot, turli millat va madaniyatlararo munosabatda ahamiyati oshib bormoqda. Chet tillarni o'rganishning lingvomadaniy asosi chet tilini o'rganish va madaniyatlararo almashinuvida til vosita sifatida xizmat qilayapti. Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri talabalarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, ya'ni, muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish dan iboratdir. Bunda asosan xorijiy tillarning, xususan, ingliz tilining rolini alohida ta'kidlash kerak.

Chet tillarni o'qitishda universitetdagi amaliy faoliyat ingliz tilidagi matnlarni original variant bilan tanishgan holda talabalarning real, madaniy va til kompetensiyaning darajalari, madaniyatlararo muloqot sharoitida individni boshqa madaniy muhitini qabul qila olishidir. Kommunikativ-lingvistik kompetensiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda quyidagi muammolar ko'zga tashlandi: chet tilidagi matnni tushunish, leksikasining asosiy xususiyatlarini milliy-madaniy komponentlar semantikasi bilan birga lingvomamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish, psixolingistik va lingvokulturologik tahlil qilishdir.

Har qanday chet tilini o'rganishdan asosiy maqsad, madaniyatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish va chet tiliga xos bo'lgan (tinglab tushinish, gapirish, o'qish, yozish) ko'nikmalarini yaxshi o'zlashtirishdir. Ingliz tilida nutqiy faoliyat yuritishda shaxsni shakllantirgan holda, muloqotdoshlarning bir-birini tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish jarayonida oldin egallagan ijti-

moiy, madaniy, lisoniy, emotsiyal tajribalardan samarali foydalanshdir. Chet tilini o'zlashtirish chog'ida talaba lingvistik bilimlarni to'liq o'zlashtirish bilangina emas, balki nutqiy va madaniy malakalarini (kompetensiyalarini) oshirish bilan mashg'ul bo'ladi. Talaballarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda, ayniqsa, ingliz tili faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarning dars jarayonida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalarini ham shakllantirilishi lozim. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, kompetentlik va kompetensiya atamalari o'xshashdir. Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarda mavjudligini anglatса, kompetentlik – bu bilimlarni ish jarayonida ishlatsish. **Kompetensiya** – muayyan fan bo'yicha talaba egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'l lay olishdir.

Kompetentlik va kompetensiya atamasining mazmuni olimlar tomonidan bahsli bo'lib kelmoqda. "Kompetensiya" atamasi ingliz tilidagi adabiyotlarda birinchilardan bo'lib paydo bo'lib, bu atama "bilim", "ko'nikma", "qobiliyat" atamalari bilan keng qo'llanilib kelinmoqda. **"Kompetensiya"** atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, o'zbek tiliga "qobiliyat" deb tarjima qilinadi. Bugungi kunda lingvistik kompetensiyaviy yondashuv atamasining o'rganilishi XX asr o'rtalaridan boshlab qo'llanilgan bo'lib, tilning qo'llanilish jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuyidir. Chet tillarni o'qitish metodikasida "bilim", "ko'nikma" va "malaka" kabi tushunchalar tilni qo'llanilish jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan omil va ta'limda natijaviylikni talab qiladi. Chet tillarni o'rganishda olin-gan nazariy bilim, ko'nikma va malakalar majmuyi amaliyotda, ya'ni kommunikativ muloqotda mustaqil qo'llay olishdir.

Xorijiy tilni o'qitish va o'rganish uzoq vaqtlar davomida munozarali muammolardan biri bo'lgan. Ushbu davr davomida turli xil metod va nazariyalar qo'llanilib kelgan. Grammatik tarjima (grammar translation) metodi xorijiy va ikkinchi chet tilini o'qitishda bir necha o'n yillar davomida eng asosiy metodlardan biri bo'lgan va hozirda ham qo'llanilib kelmoqda. 1970-yillarda chet tilini o'qitishda qo'llanilagan yondashuvlar va metodologiyalar ichida CLT (communicative language teaching) kommunikativ kompetentlik kirib keldi. Kommunikativ kompetensiya degani muloqot qila olish kompetensiyasidir. Bu kompetensiya og'zaki, yozma va hatto nonverbal ham

bo'lishi mumkin. Bu inkyuziv atama bo'lib, u tilni bilish va kommunikativ ehtiyojlarni qondirish uchun real hayot sharoitida tildan foy-dalanish ko'nikmalarini anglatadi. Ko'plab tadqiqotchilarning fikriga ko'ra til aloqa vositasi va u o'z ichiga 4 ta ko'nikmani: gapirish, tinglash, o'qish va yozishni oladi. Bu to'rtta til ko'nikmasini o'zlash-tirish uchun grammatik qonun-qoidalardan samarali va oqilonan kontekstda qo'llay olish kerak.

Chomskiy kompetensiyaga "so'zlovchi va tinglovchining til haqidagi bilimlari" deb ta'rif beradi va so'zlovchi til haqidagi nazariy bilimlarga ega bo'lmasdan grammatik to'g'ri gap tuzish mumkin emas deydi. Naom Xomsky tomonidan umumiy grammatika nazariyasi 1957-yilda fanga kiritildi [Taha & Reishaan 2008, 42] va ushbu nazariyada har bir gapga aniq bir strukturani taklif etadi. Bir necha yildan so'ng lingvistik kompetensiya atamasi [Tienson 1983] bilan almashtirdi. Uning fikriga muvofiq, "ideal so'zlovchi- tinglovchi" o'z nutqini omma oldida ochiq ifoda eta oladigan shaxsni tushunadi [Chomsky 1965, 3-8]. Xomskiyning lingvistik kompetensiyaga bergen ta'rifida ko'rishimiz mumkinki, faqatgina ona tili ingliz tili bo'l-gan mahalliy gapiruvchilargina yaxshi shakllangan gaplarni tuza oladi. Lekin lingvistik kompetensiya til o'rganishda yagona maqsad bo'lib xizmat qila olmaydi, zero til haqidagi bilimlar faqatgina yaxshi shakllangan gaplar tuzishdangina iborat emas. Insonlar o'rtasidagi kommunikatsiya bo'lmasa, faqatgina nazariy bilimlarga tayanib qoladi [Thornbury, 2006].

Piyanto (2013) va Heidari va Alavi [Heidari va Alavi 2015, 97] grammatik va kommunikativ yoki og'zaki kompetensiyalar o'rtasidagi o'xshashlik haqida tadqiqot olib bordi. Lopez o'zining tadqiqotlarida shu xulosaga keldiki, grammatik kompetensiya talabalarning o'qish ko'nikmasini aniqlashda yagona omil emas. Matnga taalluqli bo'lgan bo'sh o'rirlarni to'ldirish, tinish belgilarni to'g'ri qo'yish bevosita muloqot kompetensiyani shakllantiradi.

"Kommunikativ kompetensiya" atamasi birinchi bo'lib Dell Hymes tomonidan 1966-yil "Developing the Language of the disadvantaged children" deb nomlangan konferensiya nutqida berilgan. Hymes kommunikativ kompetensiya atamasi deganda nafaqat grammatik kompetensiyani, balki sotsiolingvistik kompetensiyani ham nazarda tutgan. Dell Hymes Xomskiyning lingvistik kompetensiyasini tanqid qiladi va shaxsning kompetentligi uning nafaqat til haqidagi bilimlarida aks etadi, balki u o'z bilimlarni haqiqiy real ijtimoiy vaziyatlardagina faollashtira oladi. Chomskyning kompetensiya va faoliyat atamalariga qarama-qarshi ravishda Hymes tomonida

"kommunikativ kompetensiya" atamasi kiritildi. Hymesning fikriga muvofiq kommunikativ kompetensiya nafaqat grammatik kompetensiyani, balki sotsiolingvistik kompetensiyani ham izohlaydi. [Hymes 1972, 278]. Maikl Kanale va Merril Swain tomonidan ilgari surilgan tadqiqot natijasiga ko'ra insonlar muloqot qilishlari uchun zarur bo'lgan qanday bilim va malakalar zarurligi ta'kidlandi. Unga muvofiq grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarga ajratdi. Grammatik kompetensiya — "leksik birliklar haqidagi bilimlar, morfologiya, sintaksis, fonologiya va gaplarning semantikasıdır". Sotsiolingvistik kompetensiya — turli ijtimoiy vaziyatlarda til elementlardan foydalanish qonun-qoidalari. Strategik kompetensiyada muloqotning samaraliligini yoritishda ham verbal va noverbal vositalardan foydalanish [Bagaric & Djigunovic 2007, 98].

XX asrning 80-90-yillarida o'quv-metodik adabiyotlarda chet tillarni o'qitishda "kompetensiya" tushunchasi "kommunikativ yondashuv" va "kommunikativ kompetensiya" atamalarining o'rni-ga keng qo'llanilib kelindi. Mashhur metodik olim E.I.Passov, I.L.Bim, V.I.Baydenko ushbu masalalar bilan shug'ullanib kelgan. V.I.Baydenko kompetensiyani ikki turga: umumi kompetensiya(universal) va predmet-kasbga yo'naltirilgan [Скворцова 2012, 70]. Nofilologik ta'lim muassasalaridagi talabalar umummadaniy: boshqa xalq va millatlarning madaniy qadriyatlariga hurmat, tadqiqot va kognitiv qobiliyatlarini, informatsion madaniy rivojlanish kompetensiyalarni o'zlashtirishi kerak. Chet tillarni o'qitishda kasbga yo'naltirilgan kompetensiyaning roli kattadir, ya'ni chet tilini o'rganuvchi talaba nafaqat tilni balki, til mansub bo'lgan mamlakat va xalqning madaniy o'ziga xosligi haqidagi bilimlarga ham ega bo'lishi kerak. Inson nazariy bilimlarni bilish orqali ma'lum bir bilim va ko'nikmaga ega bo'lib boradi. Bu bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish orqali ma'lum malakaga ega bo'ladi. Talabalarning lingvistik kompetensiyasi ularning chet til bo'yicha olgan bilimlari, bu bilimlarni amaliyot bilan bog'lash ko'nikmasi va nutq hosil qilish malakasidir. Talabalarga til qurilishi bo'yicha berilgan bilimlar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilsa, bu ularning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilgan bo'ladi. Og'zaki va yozma nutq mukammallashuvi uchun nafi bo'lмаган bilimlar lingvistik kompetensiya tarkibiga kirmaydi. Umuman olganda, amaliyot bilan bog'lanmaydigan, nutqiy malaka hosil qilmaydigan lingvistik bilimlarni berish uchun sarflangan mablag' va vaqt o'zini oqlamaydi. Masalan, urg'u haqidagi bilimlar sirasida ingliz tiliga chetdan o'zlashgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qoidalari o'quvchilarning

nutqiy malakasini rivojlantiradi. Ammo so'z urg'usining ingliz tilida qat'iy emasligi, so'z qaysi tildan kirib kelgan bo'lsa, o'sha tildagi taffuz saqlanib qoladi va bilimlar lingvistik kompetensiya tarkibiga kirmaydi. Zero, bu bilimlar malakaga aylanmaydi. Chet tilini o'rganayotgan talaba bilimga ega bo'lmasa ham tegishli o'rnlarda urg'u so'zga berishda xato qilmaydi [Yo'ldosheva 2020, 39]

Chet tilini o'rganishning turli bosqichlarida til haqidagi bilimlarni shakllantirishning (lingvistik kompetensiya) masalasi muhim hisoblangan. Lingvistik kompetensiya masalasi chet tilini o'qitish metodikasida til kompetensiyasi termini bilan sinonim ravishda qo'llanilib kelingan. Til kompetensiyasi atamasi chet tilida nutqiy faoliyatga kirishishda ko'nikma, malakalarning namoyon bo'lishidir (V.V.Safranova, D.I.Izarenko va boshqalar).

Lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish masalalari bilan rus va chet tili olimlaridan N.Xomskiy, E.N.Solovova, D.Slobin, S.Savinyon, R.P.Milrud, S.Muaran, L.F.Baxman, M.N.Vyatyunyev, D.Xayms, G.V.Kolshanskiy, D.I.Izarenkov, V.V.Safonova, E.N.Dudina, Yan Van Ek, A.A.Mirolyubov, A.L.Berdichevskiy, J.Raven, I.A.Zimnya, A.K.Markova, A.V.Xutorskiy, E.I.Passov, I.L.Bim, L.N.Chernovatiy, S.F.Shatilov va boshqalar shug'ullanishgan. Kompetensiyalar ta'rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud:

- Amerikacha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi.

- Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya'n qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko'riladi [Jabborova, Jumanova 2020]

Kompetensiyaviy yondashuv (1960-1970) ilk bor chet tili o'rganish nazariyasi yo'nalishida D.Xayms tomonidan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi bilan kiritildi va til kompetensiya turlariga tegishli tadqiqotlar boshlandi.

Ikkinci bosqich (1970-1990-yillar) chet tili o'rganish nazariyasi va amaliyotida kasbiy mahorat, muloqot qilishni o'rganishda kompetentlik kategoriyalari qo'llanila boshlandi. J.Ravennaing 1984-yilda chop etilgan "Zamonaviy jamiyatda kompetentlik" nomli asarida kompetentlikka keng ta'rif berilgan. Unda "u juda ko'p miqdordagi komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ular dan ko'pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqil. Ayrim komponentlar ko'proq kognitiv sohaga tegishli." V.Xutmaxerning umumlashtiruvchi ma'ruzasida kompetensiya ko'nikma, kompetentlik, qobili-

yat, mahorat kabi tushunchalar bilan bir qatorda ishlatsada, uning mazmuni hali to'la olib berilmaganini ta'kidlab o'tgan. Uning fikriga muvofiq: "Bu ijtimoiy hayotdagi, ishdagi juda ko'p vaziyatlarda va turli shakllarda namoyon bo'ladigan shaxsiy va shaxslararo sifatlar, qobiliyatlar, bilimlar va ko'nikmalardir".

3-bosqich 90-yillardan boshlanadi va bu davrdagi kompetentlikni ilmiy kategoriya sifatida ta'limda qo'llash bo'yicha tad-qiqot ishlari olib borildi. O'qituvchilarning kompetentligiga tegishli L.M.Mitina, L.A.Petrovskiy, N.V.Kuzmina, L.P.Alekseeva, N.S.Shabligina va boshqa olimlar tomonida olib borildi.

4-bosqichda kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish bilan bog'langan.

"Kompetensiya" atamasini birinchilardan bo'lib, N.Xomskiy XX asrning o'rtalarida, ya'ni 1965-yilda "tildan foydalanish" deb nomlangan atamasiga semantik qarama-qarshi ravishda foydalangan [3eep 2004, 135]. Kompetensiya atamasi lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, "competence" insonning tajriba va ko'nikmani yaxshi o'zlashtirish malakasi deyiladi. Lingvistik kompetensiya so'zlovchi muloqotga kirishish uchun aniq ko'nikma, malakalardan samarali foydalana olishidir [3eep 2004, 135]. U lingvistik kompetensiyani o'z tarkibiga tilning nazariy xususiyatlarini qamrab olib, grammatika va sintaksisning nutqiy ko'nikmalarini amaliyotda foydalanish, til normalarini joriy qilish deb ataydi. XX asrning o'rtalarida N.Xomskiy tomonidan "til kompetensiyasi" atamasi fanga kiritildi va shundan so'ng keng tarqalgan. Bu atama semantik qatlamda "tildan foydalanish" atamasiga qarama-qarshi ravishda qo'llanilgan va "tinglovchi" va "gapiruvchi" xuddi amaliyotda tildan foydalanish kabi bir-biridan farq qiladi.

Til kompetensiyasi S.Savinyon, L.N.Chernovatiy, N.Xomskiy va boshqa olimlar tomonidan batafsil o'rganilgan. Bugungi kunda turli olimlarning qanday ko'nikmalarni shakllantirish kerakligi haqidagi fikrlari turlichadir. Ayrim olimlar "til kompetensiyasi" atamasining o'rniga "tilni o'rganish" atamasini qo'llab keladi. Masalan, I.A.Zimney nutqiy faoliyatning asosiy tiplari sifatida eshitish va gapirish ko'nikmasini ta'kidlab o'tadi. Uning fikriga ko'ra til kompetensiyasi-o'r-ganilayotgan tilning grammatika, leksika va fonetikasi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ma'lumotni o'zlashtirishdir va u nutqiy faoliyatning turli bosqichlarida, ya'ni u og'zaki va yozma shakllarda rivojlanadi [3eep 2004, 135].

Til kompetensiyasi – bayon qilish, e'lon qilish, ma'lumotni

yetkazish, o'zining nutqini yozma bayon qilish, muloqot jarayonida suhbatdoshining nutqini tushunishdir. Chet tillarni o'rganishda kompetensiya atamasi — chet tilini o'rganish jarayonidagi qobiliyat, ko'nikma, malakalarning shakllanishidagi kompleks jamlanmasi. Lingvistik kompetensiya o'z tarkibiga fonetik, orfografik, leksik vositalarni kiritadi va N.Xomskiyning fikricha grammatik bilimga ega bo'lish uchun til sistemasi qatlamlarini yaxshi o'zlashtirish kerak. N.Xomskiy o'z tadqiqotlarida lingvistik kompetensiya deganda tilni to'laqonli bilish, gapirish va tinglash ko'nikmasiga ega bo'lish, grammatik qoidalarni o'z ichiga olgan gaplarni tuzish malakasining shakllanishini nazarda tutadi. Bola dastlab chet tilidagi ushbu grammatik qoidalarni tushunmaydilar. Ular tilni boshqacha yo'l bilan, eshitgan ma'lumotini ongsiz ravishda takrorlab gapirish yordamida o'zlashtiradi va ularda dastlab eshitish va gapirish ko'nikmalarini shakllanadi. Keyinchalik esa yozish va o'qishni o'rgangandan so'ng grammatik qonun-qoidalarni o'zlashtiradi.

Nutqiy faoliyatga kirishish uchun nafaqat lingvistik kompetensiyanı rivojlantirish kerak, balki tilni bilishda kommunikativ kompetensiya, ya'ni til sistemasini, uning strukturasini, uning qatlamlarini, ya'ni fonetika, leksika morfologiya, sintaksis, matn stilistikasi, so'z yasalishi, so'z birikmasi kabi qatlamlarini amaliyotda bir sistema sifatida foydalanish ko'nikmasi shakllantirishi kerak (E.M.Vershagin, V.G.Kostomarov, D.Slobin, S.Muaran, S.Savinyon, L.F.Baxman, Yan Van Ek, M.N.Vyatutnev, G.V.Kolshanskiy va boshqalar).

Kompetensiyanı shakllantirish V.Y.Gmurmanning fikricha "rivojlanishning ixtiyoriy bosqichida yakuniy xarakterga ega bo'lgan, ma'lum bir ajralmas ko'rinishga intiladigan jarayonni ko'rib chiqishga haqlimiz" [Хомский 1995, 135].

E.Z.Zeerning fikricha, "kompetensiya – samarali profesional faoliyatning bajarish uchun umumlashtirilgan harakatlar, usullar majmuasi" [Зееп 2004, 135]. A.V.Xutorskiyning fikricha "Kompetensiya – samarali aniq bir faoliyatga o'quvchini tayyorlashda oldindan talab qilingan ijtimoiy talab"dir. A.V. Xutorskiyning fikricha kompetensiya – bu talabalarga bilim olishda dastlab taqdim etilishi kerak bo'lgan talablar jamlanmasi. Kompetentlik – bu talabalarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish tajribasi. Lingvistik kompetensiya intuitiv darajada o'zlashtirilgan bilimlar, til qurilish sistemasida mavjud bo'lgan qoidalarni nutqiy faoliyatda qo'llay olish ko'nikmasidir [Хомский 1995, 135]. A.A.Chuchalinning fikriga ko'ra, kompetensiya bu bilim, ko'nikma va ularidan foydalanish tajribasining birlashmasidir. U haqiqiy nutq so'zlovchisini barcha nutq xususiyatlari

bilan lingvistik emas, balki psixologik, sotsiologik, didaktik tadqiqot obyekti deb bilgan [Гмурман 1983, 36]. N. Xomskiyning fikricha, lingvistik kompetensiya ideal gramatik bilimdir [Гмурман 1983, 36]. Ya. M. Kolkeru lingvistik kompetensiyani gramatik kompetensiyan farqli ravishda nafaqat fonetik, morfologik, leksik, sintaktik qatlamlarni aniqlashda, balki amaliyotda ham foydalana olishdir.

60-yillarning oxiri – 70-yillarning boshlari. N.Xomskiy izdoshlari "lingvistik kompetentsiya" atamasini "lingvistik qobiliyat" deb qabul qila boshlaydi, ya'ni, to'g'ridan to'g'ri tilni bilish qobiliyatidir, deydi. Amerikalik olim va etnolingvist D. Ximes N.Xomskiyning konsepsiyaga bergan ta'rifini tanqid qiladi va "lingvistik kompetensiyalaridan foydalanish qoidalari mavjud, ularsiz gramatika qoidalari foydasizdir", [Хомский 1972, 129] deydi. U Xomskiy lingvistik kompetentsiya konsepsiyasini kengaytirdi deb aytadi va o'z asarida "kommunikativ kompetensiya" tushunchasini kiritdi, bu til qobiliyatlari, muloqot sharoitida tildan foydalanish bo'yicha bilimlarning yig'indisini anglatadi. A.G.Shatirinaning fikriga ko'ra lingvistik kompetensiya til sistemasining barcha qatlamlaridan, ya'ni gramatika, leksika, fonetika va matnshunoslik oqilona foydalana olishdir.

Amerikalik psixolog va psixolingvist D.Slobin ushbu atamalarning farqini quyidagicha ta'kidlaydi: muntazam muloqot davomida tilni tushunish ko'nikmasi paydo bo'ladi [Хомский 1972, 129]. Fransuz olimi S.Savinyonning nazarida til kompetensiyasi gramatik kompetensiya bilan bir xil ma'no, ya'ni tilning leksik, morfologik, sintaktik va fonologik qatlamlarini anglatadi [Михалкина 1994, 179].

Chet el olimlaridan til kompetensiyasi masalasi bilan S.Savinyon, R.P.Milrud, L.F.Baxman va boshqalar shug'ullanishgan. S.Muaran lingvistik kompetensiya deganda fonetik, leksik, gramatik va matn nuqtayi nazaridan muloqotda uni qo'llay olishni tushunadi [Mehisto 2008, 240]. Gollandiyalik olim Yan Van Ek "Lingvistik kompetentsiya – bu an'anaviy ma'noda so'zlardan tashkil topgan gramatik jihatdan to'g'ri gaplarni yaratish va talqin qilish qobiliyatidir, kommunikativ qobiliyatning tilni qatlamlarida shakllantirish uchun rivojlantirish fundamenti deb hisoblaydi [Van Ek 1986, 89].

Shu bilan birga, so'z boyligi, gramatika, matnni yetarli darajada idrok etish va matn yaratish qobiliyati va boshqalar kabi ko'nikma va malakalar ajralib turadi. Ko'pgina tadqiqotchilar "lisoniy kompetentsiya" atamasini ishlatmaydilar, uni "til bilimi",

"tilni bilish" va boshqalar iboralari bilan almashtiradilar.

Y.V.Slezkoning fikricha chet tilida kommunikativ kompetensiya o'z tarkibiga lingvistik, sotsio-kultur, diskursiv, strategik, sotsial, sotsiolingvistik, tematik va madaniyatlararo kompetensiyalarni ola-di [Slezko 2017, 12].

Talabalarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish jaryonida til sistemasi haqidagi bilimlaridan samarali foydalanish ko'nikmasi mavjud bo'lishi kerak. Lingvistik kompetensiya haqida A.L.Berdichevskiy XX asrning 80-yillarning oxiri, 90-yillarning boshida lingvistik va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va kommunikativ kompetensiyani o'zlashtirishda lingvistik kompetensiya asos bo'lib xizmat qiladi, degan fikr bildiradi. Uning izdoshi I.A.Zimniy lingvistik kompetensiyaga "til sistemasini bilish va chet tili kommunikatsiyasini shakllantirishda qoidalardan foydalana olish, ya'ni lingvistik faoliyat o'z tarkibiga nutqiy faoliyat mexanizmlarida o'zlashtirish bilimini oladi" [Бим 1995, 59].

M. N. Vyatyunevning fikriga muvofiq, lingvistik kompetensiya intuitiv ravishda tilni o'zlashtirish va til strukturasini qurilishining asosini tashkil etuvchi ushbu qonun-qoidalalar muloqot vaqtida nutqiy ifodalarga aylanishidir. Muallifning fikriga ko'ra, lingvistik kompetensiya chet tillarni o'rganishning tarkibiy qismi. Lingvistik kompetensiya pedagogika, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar bilan bog'liqdir. O'qitish metodikasi lingvistik kompetensiyani til qurilishni yaratishdagi asosiy qonun qoidalalar haqidagi intuitiv bilimlar muloqot jarayonidagi shakllanishini o'rganadi. Lingvistika esa insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishda foydalanadigan ushbu qonun-qoidalarni shakllantiradi. M.Z.Bibiletova lingvistik kompetensiyani dialog, monologda talabalarning gapirish, eshitish, o'qish va yozish, leksik va grammatic qoidalardan foydalanishda, talaffuz qilishda bir nechta komponentlarini kuzatish mumkin. Fonetikada tovushlarni aniq talaffuz qilish, unli harflarning cho'ziqlik va qisqalik qoidalardan foydalanish, so'zning oxirida va alohida bo'g'inda turgan undosh tovushlarni talaffuz qila olish, unli tovush ta'sirida undoshning yumshatilishi, gap tarkibidagi qiyin so'zlar ga urg'uni qo'ya olish, darak, so'roq, his-hayajon gaplarda, ergash va teng bog'lovchili qo'shma gaplarda intonatsiyani qo'llay olish, orfografiya va grafikada barcha harflarni bilgan holda orfografik qoidalarga amal qilish, leksikada: leksik qatlamda mavjud bo'lgan so'z birikmasi, so'zlar, antonim, sinonimlarni qo'llay olish, grammatica da sodda gaplarning asosiy turlarida darak, so'roq, buyruq gaplarda, olmoshlarning, kesimning turli turlaridan foydalanish (sodda va

Lingvistik kompetensiyaning ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishdagi ahamiyati
qo'shma fe'llarda), morfologiyada, artikllarning hamma turlaridan foydalanishda kuzatish mumkin.

Nutqiy faoliyatga kirishish uchun til ko'nikmasini yaxshi o'zlashtirish kerak. Bu haqida I.L.Bim lingvistik kompetensiya deganda sotsiolingvistik xususiyatlar tushuniladi deb ta'riflagan va "til vositalaridan foydalanish matnni tushunib yetishdir" [Бим 1995, 10], deydi. E.B.Tixomirova o'zining dissertatsiya ishida chet tilida lingvistik shakllardan (fonologiya, morfologiya, leksika, sintaksis) foydalanishda lingvistik kompetensiya namoyon bo'ladi deydi va lingvistik kompetensiyani aniqlashda chet tilida fikrini ifodalay olish va o'zgalar fikrini tushuna olishdir [Тихомирова 1995, 178]. "Chet tilini o'rganishning umumyevropa kompetensiysi: o'rganish, o'qitish, baholash" deb nomlangan monografiyasida lingvistik kompetensiya nazariy asos sifatida tushuniladi, uning zaminida kommunikativ kompetensiya shakllanadi [Тихомирова 1995, 178]. Shu asosda lingvistik kompetensiya termini asosida grammatik qoidalarni qo'llay olish va sintaktik qurilishda grammatik birliklarni faollashishidir. Lingvistik kompetensiya deganda tovushlar, harflar, so'z turkumlari, morfemalar va morfologik birliklardan qo'llay olish ko'nikmasidir, ya'ni fonetik, morfologik, sintaktik, stilistik morfem, so'z yasalishi tahlil qila olish qobiliyatidir. Chet tilini bilish nafaqat tilni bilish, balki til materilallaridan foydalana olishdir, ya'ni talaffuz qoidalari, grammatik shakllar va konstruksiyalardan, mazmuni bir xil bo'lgan fikrni turlicha ifodalash sinonimlar bilan ifodalash ko'nikmasidir.

Chet tilni o'rganuvchilarining til salohiyati uchta asosiy ko'nikmalar bilan belgilanadi [Сайидова 2017, 85-86]:

- fonetik mahorat - ona tilidagi tovushlardan farq qiluvchi va tinglovchilarining talaffuzini shakllantiradigan aniq tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish qobiliyati.
- grammatik ko'nikmalar va ularni amalda qo'llash qobiliyati.
- leksik mahorat - tinglovchining umumiyo so'z boyligi.

Asosiy muammo shundaki, fonetik va grammatik mahorat o'qituvchi tomonidan shakllantiriladi va so'z boyligini to'ldirish ustida talaba mustaqil faoliyat olib borishi kerak. Shubhasiz, yangi so'zlarni o'zlashtirish jarayoni o'qituvchi nazorati ostida darslarda ham ro'y beradi, ammo darslarning vaqt cheklangani sababli o'qituvchi bu masalaga kerakli darajada e'tibor berish imkonii mavjud bo'lmaydi.

Ingliz tili darslarida talabalar o'rtasida lingvistik kompetensiyani shakllantirish so'z birikmalarini yaratish ko'nikmala-

rini shakllantirish orqali mashqlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. So'z biriklarini yasash mahoratini o'zlashtirish, ularning tarkibiy qismlarining ma'nolari va ularga mos keladigan so'z yasash modelini bilish asosida notanish so'zlarning ma'nolarini mustaqil ravishda anglash qobiliyatini o'zlashtirishni anglatadi [Юсупова 2017, 58]. Chet tilini o'rjanadigan har bir kishi birinchi navbatda ushbu tilning so'z boyligini, ya'ni chet tilida muloqot qilish uchun zarur bo'lgan so'z boyligini yaxshi o'zlashtirishi kerak. Asosiy e'tibor talabalarning nutqini yangi so'zlar va iboralar bilan boyitishga, ularni muloqot faoliyatiga tayyorlashga, nutq ko'nikmalariga o'rgatishga, nutqda aniqlik va izchillikka erishishga qaratilishi kerak. Agar talabalar ibora va jumlalarning ma'nosini tushunishni, o'z fikrlarini yozma va og'zaki bayon qilish ko'nikmalariga ega bo'lsalar, o'z nutqlarida ikkilanmasdan bir so'zni boshqasiga almashtirishi, sinonimlardan foydalanishi mumkin.

Lingvistik kompetensianing eng to'liq va aniq ta'rifi fransuz tadqiqotchisi S.Muaran tomonidan tilning uchta jihatini nazarda tutgan holda berilgan: fonetika, so'z boyligi, grammatika. Bundan tashqari, u ushbu konsepsiya bilim va ko'nikmalarni muomala amaliyotida qo'llash va to'g'ri grammatik bayonlarni tuzish qobiliyatini o'z ichiga oladi deb ta'riflagan.

Hozirgi vaqtida lingvistik kompetensiya shaxs tomonidan to'liq nutq harakatlarini amalga oshirish uchun talab qilinadigan aniq bilim va ko'nikmalar to'plami sifatida qaralmoqda. Lingvistik kompetensiya gaplarni qurish va idrok etish, shuningdek, til va aloqa uchun foydalanish imkoniyatini beradigan ma'lum lingvistik bilimlar majmuyini nazarda tutadi [Невирко 2003, 51-58]. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv metodi talabalarning professional masalalarning yechimini aniqlash kirib keldi va quyidagi xususiyatlar, ya'ni muammoni aniqlash, analiz qilish, qabul qilingan natijalarni qayta ko'rib chiqish, muhokama qilish, tanqidiy fikrlash va baholash kabi etaplar bilan baholanadi. Kompetensiyaviy yondashuv metodi birinchi marta Angliyada britaniyalik psixolog, Edinburg universiteti professori J.Raven tomonidan taklif etilgan va "competence-based" education nomi bilan tanildi. Keyinchalik kompetensiyaviy yondashuv nomi bilan juda ko'p mamlakatlarning ta'lim tizimida takomillashdi. Kommunikativ kompetensianing bir nechta komponentlari mavjud:

Lingvistik (til) kompetensiya so'z birliklari va grammatik qoidalari haqidagi bilimlardir.

Sotsiolingvistik kompetensiya – muloqotning vaziyatiga,

maqsadiga va muloqotdagi ishtirokchilarning kimligiga bog'liq ravishda til shakllari va vositalaridan foydalanish qobiliyatidir.

Diskursiv kompetensiya – kommunikativ muloqotning turli xil shakllarini tushunish qobiliyati, turli xil funksional uslublarda (xat, maqola, esse va boshqalar) mantiqiy va ob'zaro bog'langan yaxlitlikni saqlash.

Strategik kompetensiya – agar muloqot bo'lмаган vaziyatda yoki tushunmovchilik bo'lganda jest, mimikalardan foydalanish

Sotsiokultur kompetensiya – muloqot jarayonida til tashuvchilarining madaniy o'ziga xosligi, odatlari, o'zini tutish, an'analari ni tushinish va qo'llay olish; sotsiokultur kompetensiya jahon hamjamiatida va milliy madaniyatda integratsiyani ta'minaydi.

Sotsial kompetensiya – muloqot jarayonida o'ziga ishonch, boshqalar bilan muloqot qila olish kompetensiyasidir.

Zamonaviy metodistlar lingvistik kompetensiyani chet tilini o'qitish jarayonida shakllanadigan, uni o'zlashtirishni ta'minlaydigan va pirovardida talaba shaxsining rivojlanishiga xizmat qiladigan bilim, ko'nikma va malakalar to'plami deb tushunadilar. Kompetentlik metodi va o'qitish shakllarida nafaqat ta'limiy, balki hayotiy metod va texnologiyalar bilan ham ahamiyatli: a) proyektlar metodi; b) tanqidiy fikrlash metodi; v) bahs munozaralar metodi; g) o'yinli texnologiyalar metodi (tilga xos, rolli, dramatik); d) keys-stadi; e) muammoli bahsli; j) juftlik va guruhlardagi mashg'ulotlar; z) audiovisual vositalardan foydalanish, multimedia texnologiyalari, Internet resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlari chet tilida og'zaki va yozma kompetentlikni rivojlantiruvchi shakllardir.

Chet tillarni o'rganishda kompetensiyani shakllantirishning asosiy vositasi turli xil texnologiyalar, metodlar va shakllardir. Quyidagi o'quv faoliyatidagi metodlarning chet tillarni o'rganishda samarasi kam: o'qituvchining monologik nutqi, o'qituvchi tomonidan talabaga darslik kitobidan uy vazifa berish, filmning demonstratsiyasi, an'anaviy nazorat ishlari. Bu usullarning o'rniغا ko'rgazmalilik metodi, talabalar bilan debat, o'yinlar texnologiyasi (rolli, dramatik), aniq vaziyatlar metodi (keys-stadi), muammoli diskusiya, guruh yoki jamoaviy o'yinlar, til portfeli, audio vizual vositalardan, Internet-resurslaridan, multimedia vositalardan foydalanish ko'proq samara beradi. O'qituvchi tomonidan og'zaki va yozma shaklda berilgan muhokama, diskusiya, rolli o'yinlar talabalarning fikrlash qobiliyatini oshiradigan metodlardir [Лошна 2011, 167].

Kommunikativ kompetensiyaning o'qitish funksiyasida quyidagi ko'nikmalar shakllantiriladi:

- talabalarni tili o'rganilayotgan mamlakat tili, madaniyati, uning vakillarining ijtimoiy- madaniy xulq-atvordagi milliy xususiyatlarning namoyon bo'lishida o'ziga xosliklarni o'rganish;

